



TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI TA'MINLASH VA MOLİYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

*Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti Tijorat banklarini
boshqarish yo'nalishi 2-kurs magistranti
Murodullayev Salohiddin Bobojon o'g'li
salohiddinmurodullayev71@gmail.com*

Annotatsiya: *Tijorat banklari likvidligini ta'minlash va moliyaviy barqarorligini boshqarish jahon miqyosida bank sektorining inqirozlarga chidamliligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisda likvidlik va moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari xalqaro va mahalliy olimlarning so'nggi yillardagi ishlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklar, likvidlilik, likvidlilik riski, moliyaviy barqarorlik, xalqaro tajriba, Basel III, stress testlar, xavf xatarlarni boshqarish.*

Jahonda moliyaviy institutlarning barqarorligini ta'minlash, xususan, tijorat banklarining likvidligini boshqarish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash dolzarb iqtisodiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy beqarorlik va nomutanosibliklar, shu jumladan 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan likvidlik inqirozi, shuningdek 2025 yilda Pulaski Savings Bank, 2024 yilda The First National Bank of Lindsay, Republic First Bank and Republic, Bank 2023-yilda AQShdagi Silicon Valley Bank va Signature Bank singari yirik moliyaviy institutlarning qulash holatlari (FDIC, 2025)¹ bank likvidligi va barqarorligini boshqarish masalasining strategik ahamiyatini yanada oshirdi. 2024-yilda

¹ Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC), 2025. Failed Bank List



O'zbekiston bank tizimi moliyaviy barqarorlikni saqlab qoldi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimining jami aktivlari 648,6 trillion so'mni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 15,4% o'sishni ko'rsatadi. Biroq, o'sish sur'atlari oldingi yillardagi 20-30% ko'rsatkichlardan sekinlashdi. Jami majburiyatlar esa 549,6 trillion so'mga yetdi. Kapital monandlik koeffitsiyentlari minimal talablardan yuqori bo'lib, jami kapital monandligi 17,3%, I darajali kapital monandligi esa 14,2% ni tashkil etdi. Bu banklarning moliyaviy mustahkamligini ko'rsatadi.² Bundan tashqari tijorat banklari aktivlarining likvidliligini ta'minlash va moliyaviy barqarorligini samarali boshqarish orqali bank faoliyatida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni oldini olish muhim omil hisoblanadi. **Bankning likvidliligi** - bank aktivlar o'sishini moliyalashtirishi va ko'zda tutilmagan (nomaqbul) yo'qotishlarsiz majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash imkoniyati hisoblanadi.³

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va moliyaviy barqarorligini samarali boshqarish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmonida «bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha Markaziy bank tomonidan yillik moliyaviy barqarorlik sharhini e'lon qilish, Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish. Bunda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarga banklarning bardoshlilikini ta'minlash maqsadida makroprudentsial buferlar yaratish choralarini ko'rib borish»⁴ kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu

² www.cbu.uz Markaziy bank ma'lumotlaridan olindi.

³ Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2709

⁴ [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.]



belgilangan vazifalar asosida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishda ayrim muammolaga yechimlar ishlab chiqishni taqazo qilmoqda.

Banklar moliyaviy barqarorlik ta'minlash maqsadida yuqori likvidlidli aktivlar (naqd pullar, davlat qimmatli qog'ozlari, oltin, qisqa muddatli banklararo depozit va kreditlar) va yuqori daromadli aktivlar o'rtasida muvozanatni saqlashi lozim. Chunki yuqori likvidlik qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda yordam beradi, ammo bank daromadliligi qisqartiradi, yuqori daromadli aktivlar bankning foydasini oshirish bilan bir qatorda riskni ham oshiradi. Banklar ushbu muvozatni saqlashga alohida e'tibor berishi lozim hisoblanadi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tavsiyasiga ko'ra banklar uchun moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (FSI) quyida keltirilgan:

- regulyativ kapitalning riskka tortilgan aktivlar jami so'mmasiga nisbati;
- 1-darajali kapitalning jami aktivlarga nisbati;
- muammoli (Non performance loans) kreditlarni jami bank kreditlariga nisbati;
- aktivlarning daromadliligi (ROA) soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati;
- kapital rentabelligi (ROE) Sof daromadning jami kapitalga nisbati;
- likvid aktivlarni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati;
- jami aktivlarni jami kapitalga nisbati;
- sof ochiq valyuta pozitsiyasining kapitalga nisbati.⁵

Franklin Allen va Douglas Gale (2017) o'zlarining "financial crises and liquidity" tadqiqotida likvidlikni banklarning moliyaviy barqarorligidagi asosiy omil sifatida ko'rib chiqib, ularning **nazariyasiga** ko'ra, banklarning qisqa muddatli qarzlarga (masalan, tijorat qimmatli qog'ozlari yoki qisqa muddatli depozitlar) tayanib, uzoq muddatli va likvid bo'lmagan aktivlarga (masalan,

⁵ IMF.org <https://legacydata.imf.org/?sk=51b096fa-2cd2-40c2-8d09-0699cc1764da>



ko'chmas mulk kreditlari yoki korporativ obligatsiyalar) sarmoya kiritishi likvidlik muammolarini keltirib chiqaradi. Bu jarayon bank runs (ommaviy pul yechib olish) va bozor nosimmetriklari (ma'lumotlarning notekis taqsimlanishi) tufayli kuchayadi, natijada moliyaviy inqiroz yuzaga keladi.

Inqirozdan oldin banklarni tartibga solish va moliyaviy barqarorligini boshqarish uchun ko'p jihatdan kapitalni tartibga solishga tayangan. Likvidlikni tartibga solishdan keng miqyosda foydalanilmagan. Inqiroz davridagi likvidlik muammolari likvidlik talablarini keltirib chiqardi. Natijada, Bazel III dunyo miqyosida likvidlik standartlarini joriy qildi.⁶

2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so'ng Basel Bank Nazorati Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Basel III standartlari likvidlik va kapital yetarliligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu standartlar quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR): Likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio) yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi ($LQMK = \text{yuqori likvidli aktivlar} / \text{keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim}$).

Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR): SBMMK (Net Stable Funding Ratio) barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbati sifatida aniqlanadi. ($SBMMK = \text{barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi} / \text{barqaror moliyalashtirishning zarur summasi}$).

Mamlakatimiz tijorat banklari 2024 yil I yarim yilligi yakuniga ko'ra, milli valyuta bo'yicha qisqa muddatli (1 yilgacha) aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 48 foizni, majburiyatlar qismida esa ushbu ulush 57 foizini tashkil etgan. Banklar jami aktivlari tarkibida uzoq muddatli aktivlar hamda bank majburiyatlari tarkibida esa qisqa muddatli majburiyatlar ulushlarining yuqoriligi muddatlar o'rtasidagi

⁶ Allen, F., & Gale, D. (2017). *Financial Crises and Liquidity*. Oxford: Oxford University Press



nomutanosiblik xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Bunda, uzoq muddatli aktivlar hisobidan qisqa muddatli majburiyatlarni moliyalashtirishda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi banklarda likvidlilik muammosiga sabab bo'ladi.

Xulosa

Tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va moliyaviy barqarorligini boshqarish zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimining barqaror ishlashi va global inqirozlarga chidamliligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Likvidlik banklarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va katta yo'qotishlarsiz bajarish qobiliyati sifatida muhim rol o'ynaydi. Global moliyaviy inqirozlar, xususan, 2008-yilgi inqiroz, 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi va 2023-2025-yillarda AQShda yuz bergan bank bankrotliklari likvidlik xavfini boshqarishning dolzarbligini ta'kidlaydi. O'zbekiston bank tizimi 2024-yilda barqaror o'sishni namoyish etdi, ammo uzoq muddatli aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik likvidlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, banklar yuqori likvidli aktivlar (naqd pullar, davlat qimmatli qog'ozlari) va daromadli aktivlar (uzoq muddatli kreditlar) o'rtasida muvozanatni saqlashga e'tibor berishi zarur. Basel III standartlari, xususan, Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) va Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR) banklarning qisqa va uzoq muddatli likvidlik xavfini boshqarishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston banklari ushbu standartlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirib, likvidlik buferlarini shakllantirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish orqali barqarorlikni oshirishi mumkin. Stress-testlar esa iqtisodiy inqirozlar va noqulay sharoitlarga banklarning chidamliligini baholashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Markaziy banki Xalqaro Valyuta Jamg'armasi ko'magida ushbu modellarni joriy etish bo'yicha ish olib bormoqda. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital yetarliligi, xavf-xatarlarni boshqarish va makroprudentsial choralar muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston banklari I darajali



kapitalni oshirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va valyuta xavfini boshqarish orqali moliyaviy mustahkamlikni oshirishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili likvidlik oqimlarini prognoz qilish va xavflarni erta aniqlashda samarali yordam beradi. O'zbekiston tijorat banklari uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: Basel III standartlarini to'liq joriy etish, stress-testlarni kengaytirish, muddatlar muvozanatini ta'minlash, texnologik innovatsiyalardan foydalanish va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash. Ushbu strategiyalar mahalliy banklarning global iqtisodiy noaniqliklarga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bank xodimlarining malakasini oshirish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali bank tizimining samaradorligi yanada yaxshilanadi. Umuman olganda, likvidlik va moliyaviy barqarorlikni boshqarish nafaqat banklarning barqaror ishlashi, balki O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu strategiyalarni amalda qo'llash bank tizimining global raqobatbardoshligini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allen, F., & Gale, D. (2017). Financial Crises and Liquidity. Oxford: Oxford University Press.
2. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. Bank for International Settlements.
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. Bank for International Settlements.



4. International Monetary Fund (IMF). (2020). Financial Soundness Indicators (FSIs): Compilation Guide. Washington, D.C.: IMF.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2015). Tijorat banklari likvidligini boshqarish to‘g‘risidagi nizom (Ro‘yxat raqami 2709).
7. Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC). (2025). Failed Bank List. Available at: <https://www.fdic.gov/resources/resolutions/bank-failures/failed-bank-list/>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Bank tizimi statistikasi va moliyaviy barqarorlik sharhi. <https://www.cbu.uz>.
9. Adrian, T., & Shin, H. S. (2010). Liquidity and Leverage. Journal of Financial Intermediation.
10. European Central Bank (ECB). (2022). Stress Testing the Banking System: Methodologies and Applications. Frankfurt: ECB Publications
11. World Bank. (2023). Global Financial Development Report: Banking Sector Stability. Washington, D.C.: World Bank Publications